

HADISLARDA IQTISODIY TARBIYA MASALALARI

Mirzabekova Gumsha Xo‘jabekovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası katta o‘qituvchisi. O‘zbekiston, Nukus shahri.

Kdirbayeva Kamshat Maxsetovna

Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15367939>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaning ikki ustuni, Imom al-Buxoriy asarlariga kiritilgan hadislarida iqtisodiy tarbiyaga oid fikrlarning pedagogik tahlili va oilada farzand tarbiyasida pulning ahamiyati haqidagi ma‘lumotlar yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, oila, jamiyat, o‘dov-axloq, iqtisod, ma‘naviyat, «Al-jomi’ as-Sahih» hadis, isrof.

ISSUES OF ECONOMIC EDUCATION IN HADITH

Abstract. The article provides information about the two pillars of the family, provides a pedagogical analysis of the ideas regarding economic education in the hadiths included in the works of Imam al-Bukhari, as well as the importance of money in raising children in the family.

Key words: Education, family, society, morality, economics, spirituality, hadith "Al-Jami as-Sahih", extravagance.

ВОПРОСЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ХАДИСАХ

Аннотация. В статье дается информация о двух столпах семьи, дается педагогический анализ идей относительно экономического воспитания в хадисах, включенных в труды имама аль-Бухари, а также о значении денег в воспитании детей в семье.

Ключевые слова: Образование, семья, общество, мораль, экономика, духовность, хадис «Аль-Джами ас-Сахих», расточительство.

Har bir davrning o‘ziga xos dolzarb muammolari va masalalari bo‘lgani kabi shunday bir masala borki, u bizni hamisha o‘ylantirib keladi. Bu yoshlarimizning o‘dov-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his qilayotganlar ham aynan jamiyatimizning faol va o‘z navbatida nozik qatlami bo‘lmish yoshlardir. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.[1.1b]

Tarbiya esa eng avvalo oiladan boshlanadi. Oila – jamiyatning eng muhim instituti. Chunki, u tug‘ilishdan to o‘limgacha insonning mavjudligi va rivojlanishi uchun odatiy muhit vazifasini bajaradi. Nafaqat odatiy balki, zamon nafasi bilan uyg‘unlikda farzand dunyoqarashning shakillanib borishida ta‘limiy va tarbiyaviy jarayonlarni birdek qamrab oluvchi va o‘z navbatida dinamik xarakterga xususiyatiga ega bo‘lgan ziyo maskanidir. Uning ikki ustuni mavjud. Bular: birinchisi-iqtisod, ikkinchisi-ma‘naviyat.[3.66b]

➤ Iqtisod- jamiyatning hamma a‘zolari uchun faravon hayot yaratish usul va vositalarini o‘rganadigan va amalda qo‘llaydigan soha.

➤ Ma'naviyat- inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi–ma'naviyatdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ajdodlarimizning boy merosi negizida shakillanib boruvchi milliy tarbiyada ham har ikki tushunchadan uyg'unlikda foydalanish oila mustahkamligini belgilab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Xususan, buyuk muhaddis Imom al- Buxoriyning mashhur to'rt qismdan iborat «Al-jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam») asarining aynan ikkinchi qismi «Savdo - sotiqlik kitobi» deb nomlangan bo'lib, unda iqtisodiy munosabatlar zahirida shakillanib boruvchi inson axloqi va ma'naviyati borasidagi hadislar o'rin olgan. Hadisi shariflar Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba sifatida e'tirof etiladi.

Shu nuqtai nazardan ularda keltirilgan ko'rsatmalarni Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamdan musulmonlarga xolis nasihat deb tushunish mumkin. Ularda bir qator asosiy masalalar sirasida isrofgarchilik, uning zararli oqibatlari haqida ham xabar berilgan. Isrof so'zining lug'aviy ma'nosi bu–molni gunoh ishlarga sarflash yoki o'zi va bola-chaqasi uchun hech narsa qoldirmay, bor-yo'g'ini mayda-chuyda, ikir-chikirlarga sarflab yuborish ma'nolarini anglatadi.

Isrof–u qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishining bor-yo'g'ini sovradi, yakson qiladi.[4.131b] Oiladagi isrofgarchilik majoziy ma'noda aytganda “zanjir reaksiyasi”ning boshlanishiga olib keladi. Ya'ni:

- iqtisodiy yetishmovchilikka;
- oila a'zolari o'rtasida kofliktli vaziyatlarga;
- ematsional-ruhiy zo'riqishga;
- jismoniy sog'ligiga;
- er-xotin ajrimlarga;
- ijtimoiy yetimlikka;
- jinoyatga sabab bo'lishi mumkin.

Bundan ko'rinadiki, iqtisodiy tarbiya masalasiga befarq qaramaslik lozim. Jumaldan, iqtisodiy tarbiyaning muhim vositasi bo'lmish, pul ham insonni tarbiyalashdek xususiyatga ega.

Bunga atoqli yozuvchi Sadridin Ayniyning farzandlar tarbiyasida qo'llagan pul taqsimotini ham keltirish mumkin. Ya'ni, Sadridin Ayniy o'g'li va qizi Moskvada o'qiganida o'g'liga oz, qiziga ko'p pul yuborar ekan. Bunday qilishining sababini: “O'g'il bolani to'qchilik buzadi, qiz bolani yo'qchilik” degan fikrlari orqali bayon qilgan. Bundan ko'rinadiki, biz uchun shunchaki odatiy hol sanalmish oila va uning a'zolari o'rtasidagi pul taqsimoti ham juda muhimdir. Hozirgi kunda mehnatga, oilaga nisbatan yengil-yelpi qarash kayfiyati bilan birgalikda bir zumda mo'may daromadga ega bo'lish istagi insonlar o'rtasida turli xil ko'rinshdagi ko'ngilsizliklarni yuzaga keltirmoqda. Bulardan biri bu-hatto yorug' dunyoga kelmagan go'daklarni sotishdir. Bu katta gunohdir. Hadisi sharfda: “Nabiy sallallohu alayhi va sallom tug'ilmagan bo'taloqni sotishni man etadilar”.[5.20b] Hayvonga nisbatan bu ishning qilinishi man qilingan bir paytda insonlarning o'z farzandlariga bu kabi qismatni ravo ko'rishlik eng tuban ishdur. Bu kabi holatlarning yuz berishi ham o'z navbatida oiladagi ma'naviy va iqtisodiy tarbiyaning sayozligidan dalolat emasmi?! Darhaqiqat, tarbiyadagi kichinagina va biz uchun ahamiyatsizdek tuyulgan har qanday e'tiborsizlik oila mustahkamligiga putur yetkazadi.

Ko'pchilik insonlar farzandlarining noshudligida tevarak-atrof jamiyatni sababchi deb bilishadi. Aksincha, bu strotip negizining dastlabki pog'onasini ham ota-ona tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oila munosabatlarning qaror topishida ota-onaning oiladagi roli, o'rni va tarbiyaning uzviy turi bo'lmish iqtisod va ma'naviyat tarbiya bilan bog'liq.

Oila iqtisodini oqilona olib borish uchun uning har bir a'zosi iqtisodiy savodxonlikka ega bo'lishi zarurdir.

REFERENCES

1. "Shavkat Mirziyoyev" ning hikmatlari sahifasi.<https://hikmatlar.uz/>
2. "Oila pedagogikasi" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. T.:2007
3. Imom Ismoil al-Buxoriy "Al-adab al-mufrad" ("Adab durdonalari") "O'zbekiston" T.:1990.
4. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Al-Jomi' as-Sahih" "Qomusiylar bosh tahririyati" T.:1997